



Syntactic aspects of the conceptual semantics of "Humor"

Gulhumor AKHMEDOVA¹

Andijan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

humor,
syntactic means,
humor expressed by a
simple sentence,
humor expressed by a
complex sentence,
humor expressed by text.

ABSTRACT

This article examines the syntactic mechanisms and expressive devices used to convey humor in the Uzbek language. It also analyzes how humor is manifested in various sentence structures, ranging from simple and complex sentences to larger textual units.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp318-324>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Yumor" konseptual semantikasining sintaktik jihatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

yumor,
sintaktik vositalar,
sodda sentence bilan
ifodalangan yumorlar,
qo'shma sentence bilan
ifodalangan yumorlar,
tekst bilan ifodalangan
yumorlar.

Ushbu maqolada o'zbek tilida hazilning ifodalanishida sintaktik vositalar hamda birliklarning ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, yumor konseptining turli xil gaplar: sodda sentence bilan ifodalangan yumorlar, qo'shma sentence bilan ifodalangan yumorlar, tekst bilan ifodalangan yumorlar bilan kelgan holatda tahlil qilindi.

¹ PhD student, Andijan State University. Andijan, Uzbekistan. E-mail: gulhumoroy@mail.ru

Синтаксические аспекты понятийной семантики «Юмор»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

юмор,
синтаксические средства,
юмор,
выраженный простым
предложением,
юмор,
выраженный сложным
предложением,
юмор,
выраженный текстом.

В данной статье анализируются синтаксические средства и методы выражения юмора в узбекском языке. Особое внимание уделяется различным формам юмора: выраженному через простое предложение, через сложное предложение и через текст. Исследуется, как разные синтаксические конструкции способствуют созданию юмористического эффекта в каждом из этих случаев.

KIRISH

Sintaksis – yunoncha “Sintaksis” soʻzidan olingan boʻlib, “Tuzish” degan maʼnoni anglatadi. Sintaksis grammatikaning bir boʻlimi boʻlib, bunda soʻzlarning va gaplarning oʻzaro aloqasini, soʻz birikmalari va gaplarning turlarini, birikish usullarini oʻrganadi. Bu jihatdan sintaksis morfologiyadan farqlanadi. Chunki morfologiya soʻzlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tushlashishi kabilarni tekshiradi. Sintaksis esa, shu formalarning dinamikasini, ularning funksiyasini maʼlum bir fikrni ifodalashdagi roʻlini oʻrganadi.

METODLAR

Soʻz birikmalari ham boshqaruvchi, yani bosh soʻzining qanday soʻz turkumi ekanligiga qarab, tasnif qilinadi. Sintaksisda esa, ergash gaplar bosh gap tarkibidagi ayrim belgi xususiyatlariga koʻra ega, kesim toʻldiruvchi, aniqllovchi ergash gaplarga ajratiladi. Demak, har bir sintaksisning kategoriyasi morfologiya bilan bogʻlangan holda tahlil qilinadi va belgilanadi. Baʼzan esa bu ikki sohani, yani morfologiya va sintaksisni bir-biridan ajratish ham qiyin boʻladi. Masalan: Kelishiklar morfologiyada ham, sintaksisda ham oʻrganiladi. Ammo morfologiyada, asosan kelishik yolgʻiz formal jihatdan, yani kelishikning formasi, qanday soʻz turkumiga qoʻshilishi tekshirilsa, sintaksisda esa kelishikning vazifasi, qanday soʻzlar bilan, boʻlaklar bilan bogʻlanishi oʻrganiladi. Ammo kelishiklarning vazifasi ham hisobga olinadi. Shuningdek, sintaksis kategoriyalari morfologik kategoriyalarga teng emas. Misol uchun: Ularning maktabi-chiroyli maktab. Bu jumladan, morfologik jihatdan toʻrt soʻz, uch xil soʻz turkumi bor. (olmosh, ot va sifat) Sintaktik jihatdan esa faqat bitta boʻlak – ega va kesim mavjud xolos.

NATIJALAR

Sodda sentence bilan ifodalangan yumorlar

Har qanday gapning tuzilish jihatidan turlarini uning grammatik asosi belgilab beradi. Gapning grammatik asosini bosh boʻlaklar: ega va kesim tashkil etadi. Gap tarkibidagi grammatik asos (ega va kesim) ning ishtirokiga koʻra gaplar tuzilish jihatidan ikki turga boʻlinadi: sodda gaplar va qoʻshma gaplar. Bitta grammatik asosiga ega boʻlib maʼlum bir fikr va his-hayajonni ifodalovchi gaplar sodda gaplar deyiladi. Masalan: **Men gulni yaxshi koʻraman.** Ushbu jumlada “men” soʻzi – ega, “yaxshi koʻraman” esa kesim vazifasida kelyabdi.

Oʻzbek tilida sodda sentencemalar turli hil holatlarni, jumladan, xursandchilik, kinoya, istehzo, mensimaslik, hurmat qilish, yoqtirish kabilarni ifodalab kelishi mumkin.

Masalan: **Nigorahonning kayfiyati ko'tarildi.** (og'zaki nutqdan)

Ushbu jumlada "Nigorahon"-ega vazifasida, "ko'tarildi" so'zi esa-kesim vazifasida ifodalanib, ekspressivlikni oshirib beryabdi. Shu bilan birga ushbu so'zlar orqali biz, Nigorahonning xursand ekanligini bilib olishimiz.

Yoki ikkinchi misolni ko'rib chiqsak:

Qaynona: Ovqatingiz hali ham pishmadimi?

Kelin: Hozir qarab kelaman, oyijon!

Ushbu jumladagi qaynonaning nutqida **"hali ham"** so'z birikmasining kesatib aytilganligi tufayli, qaynonaning keliniga bo'lgan munosabatini salbiy tusda ekanligini payqashimiz mumkin

Ingliz tilida ham hazillarni matnning boshi va oxiridan, shuningdek, uning ichki qismidan iborat bo'lgan matnlarining ichki tuzilishini o'rganishdan ko'rib chiqish mumkin. Faqatgina bitta gapdan iborat qisqa hajviy matnlarni va ularning maxsus holatlarini latifalar deb tasniflash mumkin emas. Ingliz hazillari butunligicha tekst holatida ham uchrab turadi.

Misol uchun,

Don't steal, don't lie and don't cheat. The government hates competition. (O'g'irlik qilmang, yolg'on gapirmang va aldamang. Hukumat raqobatni yomon ko'radi).

Ushbu misolda, matn syujetni o'z ichiga olgan boshlanishdan iborat bo'lib, o'zini qanday tutmaslik kerakligini ko'rsatadi. Agar ikkinchi bayonot haqida gapiradigan bo'lsak, **"Hukumat raqobatni yomon ko'radi"** sodda sentencema hisoblanib, u matnning ichki qismini ham, ayni paytda ham oxirini ifodalaydi. Ushbu xulosa matnning boshlanishini tushuntirish va ayni paytda natijasini o'z ichiga olganligi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Keling, endi ikkichi misolni tahlil qilsak:

The girl and the boy are talking. (Qiz va o'g'il bola gaplashyabdi)

The girl says: (qiz bola so'zladi)

– You could be an excellent dancer except for two things. (Sen o'zingda bor bo'lgan ikkita narsadan tashqari hisoblasak, zo'r raqqossan)

The boy asks: (o'g'il bola so'radi)

– And what are they? (Ular nimalar)

The girl answers: (qiz bola javob berdi)

– Your feet. (Sening oyoqlaring)

Ushbu misolda esa, dastlabki ikki gap matnning boshi hisoblanadi, chunki ular matnda ko'tarilgan asosiy muammoga, ma'lum javob olish uchun suhbatdoshdan kutilayotgan asosiy savolga olib keladi. Uchinchi bayonotda keltirilgan kutilgan savolning o'zi matnning ichki qismidir, chunki hazil matnining butun ma'nosi unga qurilgan. Va tugatish sodda sentencema hisoblanib, bu savolga javob bo'ladi: hazil bilan taqdim etilgan matnning ma'nosini ochib beradi.

Va nihoyat, uchinchi misolni ko'rib chiqsak,

What is the longest word in the English language? (Ingliz tilidagi eng uzun so'z qaysi?)

– "Smiles". Because there is a mile between its first and last letters! ("Kulish" chunki birinchi va ohirgi harflarning orasida "mile" (milya) so'zi bor.)

Ushbu matn uchta bayonotdan iborat. Ulardan birinchisi matnning boshlanishi bo'ladi, chunki u javob olish uchun asosiy savolni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bayonot ichkidir, chunki u kutilmagan javobni ifodalaydi. Uchinchi gap – hazil matnining oxiri, chunki u ichki, asosiy qismning ma'nosini ochib beradi hamda sodda sentencema hisoblanadi. Buning sababi, gapda tgallanganlik-predikativli xususiyati bor.

Qo'shma sentencema bilan ifodalangan yumorlar

Barchamizga ma'lumki, sodda gap bitta kesimlik belgisiga, mazmunan va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap hisoblansa, qo'shma gap iki yoki undan ortiq sodda gapning, o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan, ohang tugalligiga ega bo'lgan butunlik hisoblanadi. Buning sababi, gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimning nechtaligi gaplari sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi.

O'zbek tilida hajviy matnlar orasida yumorga boy qo'shma gaplar kundalik hayotimizda, badiiy kitoblarda, gazeta va jurnallarda berilgan latifalarda ko'plab uchrab turadi.

Misol uchun, *Kecha dadam do'stining to'yiga bordi va qo'liga to'yonasini tutqazmoqchi bo'lganida, do'sti "oshna, bu nima qilganing kerak emas dedi-yu, kissasiga solib qo'ydi". (og'zaki nutqdan)*

Ushbu kontekstda berilgan ikkinchi qism qo'shma gapda berilgan bo'lib, oshnasining to'yonani olmasdan, keyin shartta cho'ntagiga solib qo'ygani matnga hajviy tus beradi.

Yoki ikkinchi misolni ko'rib chiqsak:

Kecha kelgan mehmon o'rnidan turdi-yu, uy egasiga mezbonglik qila boshladi (og'zaki nutqdan).

Berilgan jumalardan quyidagi kulgili holatni tushunish mumkin. O'zbek xalqida mehmon otangdek ulug' deyishadi, ya'ni mehmon kelsa uyimizning to'g'risini unga bo'shatib hurmat-htirom ko'rsatishga harakat qilamiz. Lekin hamma mehmon har hil bo'ladi. Yuqorida ko'rsatilgan holatda mehmonning aqlsizligi sababli, kulgili holatga tushib qolgani qo'shma sentencema orqali ifodalangan. Aytishadiku, aqlsiz mehmon mezbonga mehmonlik qiladi deb.

Endi esa ingliz hazillarining qo'shma gaplar bilan ifodalangan bir nechta namunalarini ko'rib chiqsak.

Birinchi namunamiz,

At the party, one woman said to another, "Aren't you wearing your wedding ring on the wrong finger?" The other replied, "Yes, I am, I married the wrong man." (Ziyofatda, bir ayol boshqa bir ayolga murojaat qilyabdi, "Siz nega nikoh uzugingizni no'to'g'ri barmoqqa taqib oldingiz?". Ikkinchi ayol javob beribdi: "xa shunday, sababi noto'g'ri odamga turmushga chiqqanman.")

Ushbu misolda berilgan ohirgi jumalar qoshma sentencema hisoblanib, holatga hajviy tus beradi hamda ekspressivlikni oshiradi.

Ikkinchi namunamiz,

"Haven't I been telling you for the last hour that I'll be ready in a minute?" (Sizga ohirgi soatda bir minut ichida tayyor bo'laman deb aytmadim-mi?)

Bu jumla ergashgan qo'shma gap hisoblanib, u ikkita oddiy jumalardan iborat: "Men sizga oxirgi soat davomida aytmadimmi" ("Haven't I been telling you for the last hour") va "bir daqiqada tayyor bo'laman deb aytmadim-mi?" (I'll be ready in a minute?) Ulardan birinchisi va ikkinchisi tobe bog'lovchisi "that" orqali bog'lanyabdi. Ikkinchi gap ikkinchi

darajali, ikki qismli ergash gapli sabab (I –men olmosh bilan; will be ready- tayyor bo'ladl – predikat, fe'l bilan ifodalangan), birinchisi ikki qismli bosh gap (I – men olmosh bilan ifodalangan, been telling – predikat, fe'l bilan ifodalangan). Ba'zi bir hajviy matnlarda so'roq gaplarning ko'p uchraganini ham ta'kidlamoqchish joiz deb hisoblaymiz.

Ba'zi qo'shma gaplar tinish belgilari orqali ham ifodalanib, ularning ishlatilish holatiga ko'ra ma'lum bir kontekstda hajviy holatni tasvirlyadi.

Misol uchun,

An English teacher wrote these words on the whiteboard: “woman without her man is nothing”. The teacher then asked the students to punctuate the words correctly.

The men wrote: “Woman, without her man, is nothing”.

The women wrote: “Woman! Without her, man is nothing”.

(Ingliz tili o'qituvchisi doskaga quyidagi so'zlarni yozdi: “Erkaksiz ayol hech narsa emas”. Keyin o'qituvchi o'quvchilardan tinish belgilarini to'g'ri qo'yishni so'radi.

Erkaklar yozishdi: “Ayol, erkaksiz, hech narsa emas”,

Ayollar yozishdi: “Ayol! Usiz, erkak hech narsa emas”.

Bu misol, shuningdek, erkak va ayol mantig'i o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatib beradi: har bir jins vakili o'ziga kerakli holatda tanlashdi. (Erkaklar yozgan: Ayol, erkaksiz, hech narsa emas; Ayollar yozgan: Ayol bo'lmasa, erkak hech narsa emas!)

Xuddi shunga o'xshash holatlarni ko'rishimiz mumkin.

Tekstema bilan ifodalangan yumorlar.

O'zbek tilida tekstema bilan ifodalangan yumorlar ko'plab uchrab turadi. Xalq og'zaki ijodining latifa janrida hajviy mantlarga boydir. Tilshunos olim U.Yo'ldoshev o'zining “Hajviy matnlar tarjimasining lingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o'zbek xalq latifalari misolida)” nomli dissertatsiya ishida jami 770 taga yaqin yumorga boy o'zbek xalq latifalarining ingliz tiliga tarjimalarining lingvostatistik tahlil qilib chiqqan.”

O'zbek adabiyotida ko'plab yozuvchilarimiz hajviy hikoyalar, qissalar, asarlar yozishgan. Shubxasiz, kitobxon sifatida, biz, ushbu asarlarda ko'plab hajviy tekstemagalarga (HJ) duch kelamiz. Jumladan, adibimiz O'.Xoshimovning “Ikki kara ikki besh” asaridan bir nechta HJlarni lingvistik tahlil qilib chiqamiz.

-E, do'xtirjon! Qiynab nima qilasiz, odamni! Aytyabman-ku, soppa-sog'man! Rahmat, yaxshi davoladinglar. Esingizdami, bannisaga kelgan kunlarim, bir lunjim oqib tushgan nondek osilib yotuvdi. Og'iz- yomg'rida qolgan o'choq! Qo'lim bilan to'g'rilayman, deb xarchand urinaman, qani joyiga kelsa, tag'in qiyshayib qoladi, xumpar! Ko'zning ham bittasi katta, bittasi kichkina edi! Mana, hammasi bip-binoyi! Endi, do'xtirjon, bizga javob bersangiz... Nima? Yana so'raysiz-a? Jinoyatchisan, deb tergovchi so'roq qilsa, jinnisan, deb do'xtirlar so'roq qilsa... Nima qilay, axir? Kimga aytay dodimni!

Ushbu matnda “Esingizdami, bannisaga kelgan kunlarim, bir lunjim oqib tushgan nondek osilib yotuvdi. Og'iz – yomg'rida qolgan o'choq!” jumllalarida metonimiya stilistik usuli qo'llangan. Bilamizki, metonimiyaning ko'rinishlaridan biri-bu qism orqali butun yoki butun orqali qismga nom ko'chish holati hisoblanadi. Ushbu HTda muallif “og'izni o'choqqa” qiyoslayaganligi tufayli kulguli holat aks etyabdi. Keyingi “Endi, do'xtirjon, bizga javob bersangiz... Nima? Yana so'raysiz-a? Jinoyatchisan, deb tergovchi so'roq qilsa, jinnisan, deb do'xtirlar so'roq qilsa... Nima qilay, axir? Kimga aytay dodimni!” jumllalarda til birliklarini o'ta mubolag'ali qo'llash kuchli kinoyaviy kulgini hosil qilyabdi.

Yana bir misolni ko'rib chiqsak:

Qishloq joyda hashar desa, hamma yopirilib kelaveradi. "Qayoqqa, nimaga", deb surishtirib o'tirish-nomardlik bo'ladi. Xullas, hovlimizga tumonat odam to'plandi. Qarasam, bashing kiyinib olgan o'zim tengi bola yong'oqqa kesak otyapti. Shunaqangi do'mboq, shunaqangi dumaloq bolaki, ho'ppa semiz quyonga o'xshaydi. Ushbu hajviy jumalarda muallif tomonidan personifikatsiya stilistik usuli qo'llanilgan bo'lib, insonni hayvonga o'xshatilmoqda.

Inglzi tilida ham HTlar inglizlarning og'zaki va yozma nutqida ko'plab uchraydi. Ayniqsa, ingliz latifalarida (anekdot) kundalik hayotimizdagi turli hil holatlarni yengil kulgu orqali yoritish uchrab turadi. Jumladan,

After a church service on Sunday Morning, a young boy suddenly announced to his mother:

– Mom, I have decided to become a minister when I grow up.

– That's okay with us, but what made you decide?

– "Well", said the little boy, I have to go to church on Sunday anyway, and figure it will be more fun to stand up and yell than to sit down and listen.

(Yakshanba kuni ertalab cherkov xizmatidan keyin bola birdan onasiga e'lon qildi:

– Ona, men katta bo'lganimda vazir bo'lishga qaror qildim.

– Biz to'g'ri tushunamiz, lekin nimaga bunday qaror qildingiz?

– Xo'sh, – dedi bola, – baribir yakshanba kuni cherkovga borishim kerak va men o'tirib tinglashdan ko'ra, turib baqirish qiziqroq deb o'yladim.)

Ushbu berilgan tekstemada bolaning fikri va uning kelajagi haqidagi qarorini bir biriga asliyat ma'nolari zid bo'lgan til birliklari **"to stand up-to sit down"** (**turmoq-o'tirmoq**) hamda **"yell-listen"** (**baqirmoq-tinglamoq**) orqali ustalik bilan qiyoslab, suhbatga hajviy tus beryabdi.

Yana bir misolni tahlil qilib chiqsak:

A little girl had just finished her first week of school.

– "I am wasting my time", she said to her mother. I can not read, I can not write and they won't let me talk! (Qizaloq maktabning birinchi haftasini tugatdi. "Men vaqtimni behuda o'tkazyapman", dedi u onasiga. Men o'qiy olmayman, yoza olmayman va ular menga gapirishga ham ruxsat berishmaydi!)

Ushbu HTda kichkina qizchanning maktabdagi holati aks ettirilgan. Ushbu holatda **"I can not write, I can not read and they won't let me talk"** jumalari tinglovchining yuzida beixtiyor samimiy tabassum paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Buning sababi shundaki, qizcha maktabga aslida yozishni va o'qishni o'rgangani boradi. Lekin bu holatda u o'quvchi sifatida maktabdagi hali aniq tushunib yetmagani bois ushbu berilgan til birliklarini ishlatadi hamda onasi bilan suhbatida kulguli holatni uyg'otadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz o'rinliki, yumor inson hayotining har bir jabhasida uchrab turadi. Yumor orqali insonlar o'rtasida do'stona hamda beg'araz kulgi holat paydo bo'ladi. Va ushbu holatlarning ifodalanishida tilshunoslikning sintaksis bo'limida bir necha yuqorida berilgan misollarni lingvistik tahlil qilish orqali ham bunga guvoh bo'lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.R. Kulimbetova Sintaksis haqida tushuncha/ Международный научный журнал No5(100), часть1«Научный импульс», No5(100), часть1, Декабрь, 2022 –В.204
2. <https://ppt-online.org/1518420>
3. <http://www.anglik.net/britishjokes.htm>
4. Xoshimov O'. Ikki karra ikki besh, Toshkent, 2020, B-3
5. <https://azenglish.ru/anekdotyi-na-angliyskom-s-perevodom>